“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XO‘JAYOROV FAZLIDDIN ESHDAVLATOVICH

35/6 kV LI ELEKTR TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ELEKTR ENERGIYA ISROFINI KAMAYTIRISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

05.05.07 - “Qishloq xo‘jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalar”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026 yil

UO‘K 621.3:63(043)

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по техническим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Xo‘jayorov Fazliddin Eshdavlatovich
35/6 kV li elektr tarmoqlari samaradorligini oshirish va elektr energiya isrofini kamaytirish usulini takomillashtirish..... 5

Хужаёров Фазлиддин Эшдавлатович
Совершенствование метода повышения эффективности электрических сетей 35/6 кВ и снижения потерь электрической энергии..... 23

Khojayorov Fazliddin Eshdavlatovich
Improvement of a method for increasing the efficiency of 35/6 kv rural electrical networks and reducing electrical energy losses …..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 48

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XO‘JAYOROV FAZLIDDIN ESHDAVLATOVICH

35/6 kV LI ELEKTR TARMOQLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ELEKTR ENERGIYA ISROFINI KAMAYTIRISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

05.05.07 - “Qishloq xo‘jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalar”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026 yil

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T3146 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tiiame.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Isaqov Abdusaid Jalilovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muxammadiyev Ashraf Muxammadiyevch** texnika fanlari doktori, professor
	Raxmatov Abdug‘ani Djumabekovich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Energetika muammolari instituti**

Dissertatsiya himoyasi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.10.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel.:(+99871) 237-09-45; faks: (+99871) 237-38-79, e-mail: admin@tiiame.uz).

Dissertatsiya bilan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____- raqami bilan ro‘yxatga olingan) (100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy. Tel.: (+99871)237-09-45; faks: (+99871)237-38-79, e-mail: admin@tiiame.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil “___”_____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

B.S. Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d. professor

U.T. Quziyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent.

D.B. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d. professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektr tarmoqlarida, shu jumladan qishloq hududidagi elektr tarmoqlarida elektr energiyasi istofini kamaytirish va tarmoqdan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradigan usul va vositalarni joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida va O‘zbekistonda elektr energiyasiga bo‘lgan talabning ortib borayotganligini hisobga olsak, tarmoqlarning elektr o‘tkazuvchanligini oshirish va ularning barqaror ishlashini ta’minlash o‘z navbatida yangi texnologik yechimlarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi[1]. Shu jihatdan qishloq elektr tarmoqlarida texnologik isroflarni kamaytirish, tizim ishonchliligini oshirish hamda elektr energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala bo‘lib, tarmoqlarni modernizatsiya qilish va ularning optimal konfiguratsiyasini shakllantirish energetika tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim hisoblanadi.

Jahonda energiya resurslarini tejash va energetik uskunalardan samarali foydalanish, elektr energiyasining behuda sarflanishini oldini olish, elektr energetika tizimlarini rivojlantirish, xususan, qishloq elektr tarmoqlari obyektlarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va energiya isroflarini kamaytirish usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bir qator maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan xalqaro standartlarga mos ravishda loyihalashtirilgan hamda energiya iste’molini boshqarishning zamonaviy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan usul va vositalarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan 35/6 kV li qishloq elektr tarmoqlari samaradorligini oshirish va elektr energiya isrofini kamaytirish uchun neyron tarmoqlarini qo‘llab sun’iy intellekt asosida energiya ta’minoti va iste’molini boshqarishning yangi usulini ishlab chiqish, uning ishlash sxemasi va parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda aholi soni, turmush darajasi va ishlab chiqarish hajmlarining ortishi elektr energiyasiga bo‘lgan talabni oshirib, ishlab chiqarish hajmining 81,5 milliard kW·h dan 86,7 milliard kW·h ga yetishiga sabab bo‘ldi. Shu munosabat bilan elektr energetika tizimi va tarmoqlarini takomillashtirish, taqsimlovchi tarmoqlarda elektr energiyasi isroflarini kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi energetika tizimini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “…energetika tizimining barqaror va ishonchli faoliyatini ta’minlash, elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda ularni zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirish va ularni jadal rivojlantirish, elektr tarmoqlarida texnologik hamda tijorat yo‘qotishlarini minimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, shuningdek, elektr energiyasi iste’molini zamonaviy raqamli texnologiyalar va intellektual boshqaruv tizimlari asosida boshqarish...”[2] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda,

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ–113-son, 2022-yil 3-fevral. “Jahon banki ishtirokida “Elektr energetika sektorini transformatsiya qilish va barqaror elektr uzatish” loyihasini amalga oshirish hamda respublika magistral elektr tarmoqlari tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF–166-son. 28-sentabr 2023-y. “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” – Toshkent, 2023.

jumladan, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarida raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish bo‘yicha energiya samaradorligini oshirish va elektr energiya isroflarini minimallashtirishga qaratilgan texnologik yechimlarni ishlab chiqish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohada zamonaviy avtomatlashtirilgan va intellektual tizimlarni tatbiq etish mazkur strategik yo‘nalishlar nafaqat energetika tizimining barqaror ishlashini ta'minlashga, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 sentabrdagi PF-166-son "Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi va 2025 yil 27 martdagi PF-63-son "Energiya samaradorligini oshirish sahasida davlat boshqaruvini takomillashtirish va energiya servis kompaniyalari xizmatlari bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi farmonlari hamda 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida", 2024 yil 17 yanvardagi PQ-28-son "Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Energetika, energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Elektr energetika tizimlari, shaharlar, sanoat karxonalari va qishloq xo‘jaligi elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va elektr energiyasi isrofini kamaytirish usullarini takomillashtirish kabi yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar masalalari va muammolari bo‘yicha N.I.Cherkasova, A.V.Kabyeshev, I.A.Suvorova, B.E.Murmanskiy, A.M.Berxane, Yu.I.Xanin, V.E.Bolyeshev, B.E.Murmanskiy, G.M.Lebedev, A.V.Lanin, N.V.Mironov va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va elektr energiyasi isrofini kamaytirish usulini takomillashtirish va raqamli egizak texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar A.R.Axmetshin, A.I.Troiskiy, M.V.Borodin, A.V.Shaluxo, V.M.Tarasov, V.S.Bogachev, Ye.V.Jilin, S.A.Shishkin, S.R.Chorshanbiev, V.Yu.Vukolov, M.Yu.Termeski, A.A.Baranov, B.Zinoviy, K.Andriy, L.Heorhiy, Y.Andriy, A.Alexander va W.Jorge va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

Respublikamizda energetika va elektr tarmoqlarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va elektr energiyasi isrofini kamaytirish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar A.J.Isaqov, I.X.Siddiqov, X.F.Fazilov, T.X.Nasirov, T.Sh.Gayipov, R.A.Siddiqov, A.D.Taslimov, M.B.Xudayorov, F.M.Raximov, A.I.Turaev, B.M.Xusanov, A.F.Xayrullaev, M.V.Meliqo‘ziev, A.A.Yuldashev, B.S.Bobonazarov, A.G.Latipov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va elektr energiyasi isrofini kamaytirish

usulini takomillashtirish va raqamli egizak texnologiyalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy muammolar yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti №28/24 - sonli “Past kuchlanishli 6/0,4 kV kuchlanishli elektr tarmoqlarida elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlarini va ishonchliligini ta’minlash usuli va vositalarini ishlab chiqish” (2023 - 2025) hamda 29/24 - sonli “Past kuchlanishli 6/0,4 kV kuchlanishli elektr tarmoqlarida elektr energiyasi isroflarini kamaytirish usul va vositalarini ishlab chiqish” (2023 - 2025) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarida raqamli egizak submodullarini qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish va elektr energiya isrofini kamaytirish usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

qishloq elektr tarmoqlarining joriy ekspluatatsion holati va energiya samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish;

sun’iy neyron texnologiyalari asosida qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsion parametrlarini hisoblash modeli, avtomatik hisob usuli va algoritmlarini ishlab chiqish;

6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqining ekspluatatsiya samaradorligini indikatorlar bo‘yicha klassifikatsiyalash asosida baholash, ogohlantirish usuli va algoritmini ishlab chiqish;

real vaqt rejimi monitoringi me’zonlarini ta’minlash asosida 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmog’ining raqamli egizagi veb asosli dasturiy ta’minot submodullari va algoritmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida elektr tarmoqlari korxonasining 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlari olingan.

Tadqiqot predmeti 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlari samaradorligini oshirish va elektr energiya isrofini kamaytirish usuli hisoblanadi.

Tadqiqot ishining usullari. Tadqiqot jarayonida matematik hisoblash qoidalari, nazariy elektrotexnika qonuniyatlari, statistik tahlil usullari, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, matematik modellashtirish usullari eksperimentlarni matematik rejalashtirish va elektr o‘lchash usullari hamda mavjud me’yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq elektr tarmoqlarining samaradorligini oshirish va elektr energiyasi isroflarini kamaytirish imkonini beruvchi umumiy (kumulyativ) xarajatlar va texnik cheklovlarni hisobga olish usuli ishlab chiqilgan;

6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlaridagi elektr uzatish liniyalarining yuklanishi va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini sun’iy neyron tamoq usullari asosida baholash hamda SAIDI va SAIFI koeffitsiyentlarini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini indikatorlar bo‘yicha klassifikatsiyalash asosida baholash va ogohlantirish usuli hamda algoritmi ishlab chiqilgan;

qishloq elektr tarmoqlarining energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini monitoring qilishga mo‘ljallangan raqamli egizak modullari majmuasi shakllantirilgan hamda mantiqiy algoritm asosida elektr tarmog‘idagi jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsion samaradorligini oshirish va elektr energiyasi isroflarini kamaytirish usullari aniqlangan;

6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining elektr uzatish liniyalari va transformatorlarining yuklanishlarini, shuningdek, ekspluatatsion ishonchlilik ko‘rsatkichlari – SAIDI va SAIFI qiymatlarini aniqlashga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot moduli ishlab chiqilgan;

6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsion samaradorligini monitoring qilish uchun raqamli egizak dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan;

6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining elektr energiyasi iste’moli va ekspluatatsion holati bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish hamda ma’lumotlarni avtomatik almashishni ta’minlovchi usul va algoritm ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishlonchliligi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qishloq elektr tarmoqlarining elektr energiyasini kamaytirish usullari (mezonli tahlil va dasturlash)ni amalda qo‘llash, elektr tarmoqlarini modellashtirish, parametrlarini tanlash tadqiqotlari va ularning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tanlangan parametrlar va umumiy xarajatlarning matematik ifodalari, elektr tarmoqlarining elektr energiya isrofini kamaytirish usulini tuzish va hisoblash usulini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. Bu esa zamonaviy qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish va elektr energiya isrofini kamaytirish usullarini takomillashtirish yordamida chegalanishlarini hisobga olgan holda elektr tarmoqlari parametrlarini ilmiy jihatdan aniqlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati 6 kV kuchlanishli tarmoqlarda elektr energiyasi isrofini kamaytirish parametrlarini aniqlashning takomillashtirilgan usulidan foydalanish hamda ushbu tarmoqlarni boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-texnik tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Qishloq elektr tarmoqlarining elektr energiya isrofini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

SAIDI va SAIFI koeffitsiyentlarini aniqlash hamda ekspluatatsion holatni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi “Raqamli egizak” Qibray tuman elektr tarmoqlari korxonasida joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi hududiy elektr tarmoqlari 2024 -yil 30 - iyundagi №01 - 02 - 6/1160 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada, elektr tarmoqlari bo‘yicha yuklamalarni qayta optimal taqsimlash orqali ekspluatatsiya samaradorligi 2,4 foizga oshirilib, yiliga 103,2 mln. so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan;

ekspluatatsion holatni tahlil qilish va avariya holatlarini bashorat qilish imkonini beruvchi submodul Qibray tuman elektr tarmoqlari korxonasida joriy

etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi hududiy elektr tarmoqlari 2024-yil 30 - iyundagi №01 - 02 - 6/1160 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada, elektr tarmoqlari bo‘yicha yuklamalarni qayta optimal taqsimlash orqali ekspluatatsiya samaradorligi 2,4 foizga oshirilib, yiliga 103,2 mln so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, jumladan 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida va Fargo’na davlat texnika universitetining “Energitika muhandisligi” fakulteti “Energitika muhandisligi” kafedrasida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, shuningdek, scopus ma’lumotlar bazasiga kirgan jurnallarda 4 ta hamda 8 ta EHM dasturi uchun va 2 ta ma’lumotlar bazasi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, obyekti hamda predmeti yoritilgan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy hamda amaliy qiymati bayon etilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, ishning aprobatsiya jarayonlari, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“6 kV li qishloq elektr tarmoqlarining tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston va jahonda qishloq elektr tarmoqlari, SAIDI va SAIFI ko‘rsatkichlari hamda energiya isroflari tahlil qilingan. Qibray tumani misolida transformator va havo liniyalaridagi texnik muammolar aniqlangan, qishloq hududlarida energiya samaradorligini oshirish uchun raqamli yechimlarni joriy etish zarurligi asoslangan.

Qibray podstansiyasidagi 4000 kVA quvvatli transformatorlar tahlili yuklamaning ko‘pincha 70-85% oralig‘ida ekanini ko‘rsatdi. FNN asosidagi bashoratga ko‘ra, yuklama 8 yildan so‘ng 0,8 koeffitsiyentdan oshishi, 12 yildan keyin esa kritik darajaga yetishi aniqlangan. Bu holat yuklamani qayta taqsimlash va raqamli egizak texnologiyasi orqali ekspluatatsiya samaradorligini oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning “**6 kV li qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsion holatinining baholash, ishonchlilik parametrlarini aniqlash va elektr energiya isroflarini modellashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining ekspluatatsion ishonchlilik parametrlarini

modellashtirish, elektr uzatish liniyalaridagi isroflarni hisoblash hamda qo‘shimcha energiya isroflarini sun’iy intellekt asosida baholash masalalari ko‘rib chiqilgan. Xalqaro (IEEE 1366) va milliy standartlar SAIDI va SAIFI ko‘rsatkichlarini nazorat qilishni talab etsada, ularni hisoblash uchun yagona aniq matematik model mavjud emasligi ushbu yo‘nalishda modellashtirish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot obyektida zaxira tarmoq mavjud emasligi sababli rejalashtirilgan uzilishlar (havo va kabel liniyalarini ta’mirlash, transformatorlarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish, kommutatsion qurilmalar ishlari) vaqtida iste’molchilarning to‘liq uzilishi kuzatilib, ular asosan 9:00 - 17:00 oralig‘ida sodir bo‘ladi. Avariya uzilishlari esa tabiiy ofatlar, uskunalar nosozligi, ortiqcha yuklama, inson omili hamda daraxt va hayvonlar ta’siri natijasida yuzaga kelib, eng yuqori uzilish darajasi Qipchoq fiderida qayd etilgan.

SAIFI normal holatda har bir iste’molchining belgilangan vaqt oralig‘ida uzilishlar sonini ifodalaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$SAIFI = \frac{\sum_{i=1}^{n} Ca(i)}{C_s} \tag{1}$$

bunda *Ca(i)* - kalendar yil davomida energiya ta’minoti tashkilotining elektr ta’minoti tizimidagi uzilgan iste’molchilar soni; C_s - iste’molchilarning umumiy soni.

SAIDI elektr ta’minoti tizimning normal holatda har bir iste’molchining belgilangan vaqtdagi o‘chishlarni soatdagi ifodasidir va quyidagicha aniqlanadi:

$$SAIDI = \frac{\sum_{i=1}^{n} Ca(i) \times t(i)}{C_S} \tag{2}$$

bunda *t(i)* - elektr ta’minotidagi uzilishning davomiyligi, soat; *Ca(i)* - kalendar yil davomida energiya ta’minoti tashkilotining elektr ta’minoti tizimidagi uzilgan iste’molchilar soni; *Cs* - elektr ta’minoti tizimidagi iste’molchilarning umumiy soni.


Rejalashtirilgan o‘chishlar oldindan belgilangan reja asosida amalga oshiriladi va ularni samarali tashkil etish hamda tartibga solishda raqamli egizak texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Rejasiz o‘chishlar esa oldindan aniq belgilab bo‘lmaydigan jarayonlar bo‘lib, ularni nazorat qilish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan uzilishlarni bashoratlash va ularning oqibatlarini kamaytirishda SAIDI hamda SAIFI ko‘rsatkichlarini modellashtirish muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv elektr ta’minotidagi uzilishlarni tahlil qilish, ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlash va ularni o‘z vaqtida bartaraf etish imkonini yaratadi.

Ushbu jarayonlarni bashoratlash uchun FNN neyron tarmog‘i qo‘llaniladi. Model qatlamlari bo‘yicha axborotning uzatilishi va yakuniy chiqish qiymatlari quyidagi formulalar asosida ifodalanadi:

Birinchi yashirin qatlam: $a_{\mathrm{i}}{}^{1} = W_{\mathrm{i}}{}^{1} \cdot x + b_{\mathrm{i}}{}^{1}$


Ikkinchi yashirin qatlam: $a_{\mathrm{j}}{}^{2} = \Sigma\, W_{\mathrm{ji}}{}^{2} \cdot a_{\mathrm{i}}{}^{1} + b_{\mathrm{j}}{}^{2}$

Yakuniy chiqish: $a_{\mathrm{k}}{}^{3} = \Sigma\, W_{\mathrm{kj}}{}^{3} \cdot a_{\mathrm{j}}{}^{2} + b_{\mathrm{k}}{}^{3}$




1 - rasm. Epoch parametrining optimal qiymatini aniqlash bo‘yicha laboratoriya tadqiqoti natijalari

1 - rasmdagi grafik ma’lumotlar dinamikasida 100 atrofida keskin maksimal pik, so‘ngra nolga yaqin pasayish va barqarorlik kuzatilgan. 300 atrofida kichik ikkilamchi tebranish aniqlangan bo‘lsada, u umumiy trendga ta’sir qilmaydi. Xulosa qilib aytganda, grafik bitta dominant ekstremum va past darajadagi barqaror tebranishlar bilan xarakterlanadi.



2 - rasm. Kirish, yashirin va chiqish qatlamidagi neyronlar qiymatlarini aniqlash laboratoriyasi natijasi

2-rasmda model kirish parametrlarining turli kombinatsiyalari bashoratlash aniqligiga ta’siri xatolik ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilingan. Natijalar xatolik qiymatlari kombinatsiyalarga qarab sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi: ayrim holatlarda u 0,03 gacha yetgan bo‘lsa, boshqalarida 0,005–0,015 oralig‘ida saqlangan. Bu esa kirish parametrlarining tanlanishi va o‘zaro kombinatsiyasi model samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini anglatadi. Xatolikning pastligi bashoratlash aniqligi yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bois, parametrlar kombinatsiyasini baholash optimal konfiguratsiyani aniqlash, xatolikni kamaytirish va model ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.



1. Treningdagi real va bashorat qilingan natija; 2. Mukammal mos kelish

3 - rasm. Epoch va kirish, yashirin va chiqish qatlamidagi neyronlar qiymatlarining optimal qiymatini aniqlash laboratoriyasi natijasi hamda o‘qish va test model va fakt qiymatlari regression tahlili

3 - rasmdagi scatter plot kuzatuv qiymatlarining chiziqli regressiya bo‘ylab taqsimlanganini va o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatadi. Regressiya chizig‘idan og‘ish va dispersiya minimal bo‘lib, bu modelning yuqori aniqligi hamda bashoratlash xatoligining kichikligini tasdiqlaydi.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti o‘qish va test qiymatlari uchun mos ravishda 0,9943 va 0,9965 ekanligi model natijasidan foydalanish mumkin ekanligini xarakterlaydi. Ushbu model natijasida olingan keyingi 5 yillik SAIDI va SAIFI qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1 - jadval.

SAIDI va SAIFI larni aniqlash FNN modeli natijasida olingan 5 yillik ko‘rsatkichlari

№	Yil	SAIDI	SAIFI
1	2025	13,902	18,520
2	2026	14,191	18,780
3	2027	14,481	19,041
4	2028	14,770	19,301

1 - jadvaldagi FNN modeli natijalari kelgusi yillarda SAIDI va SAIFI ko‘rsatkichlari ortishini ko‘rsatmoqda. Ekspluatatsiya holatini ushbu koeffitsiyentlar orqali baholash ko‘p vaqt talab etganligi sababli, energiya isroflarini modellashtirish orqali samaradorlikni aniqlash zarur. Isroflarning ortishi qurilmalarning texnik holatini yomonlashtirib, xizmat muddatini qisqartiradi.

Energiya isroflari har bir bosqich (podstansiya, liniya, transformator) uchun alohida aniqlanib, umumiy isrof energiya balansi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\Delta W = W_n - W_{n+1} \quad (3)$$

Keyingi bosqichda hisobiy elektr energiya isroflari maxsus formulalar yordamida aniqlanadi. So‘nggi bosqichda esa balans tuzilib, qo‘shimcha isroflar quyidagicha topiladi:

$$\Delta W_h = \Delta W - W_h \quad (4)$$

bunda ΔW_h - hisobiy usul bilan topilgan energiya isrofi. Hisoblash 35/6 kV podstansiyaning bir chiziqli sxemasi asosida transformatorlar, uzatish liniyalari, kommutatsion apparatlar va himoya qurilmalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ma’lumki, podstansiyadagi asosiy elektr energiya isroflari bosh pasaytiruvchi transformatorlarda hosil bo‘ladi. Shuning uchun yillik energiya isrofi quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta W_{\text{пс}} = \sum n_i \cdot P_1 \cdot \text{T}_i + \sum(\frac{1}{n} \cdot k_2^2 \cdot P_2' \cdot T_i + \frac{1}{n} \cdot k_3^2 \cdot P_3' \cdot T_i) \quad (5)$$

bunda n - elementlar soni, P_1- salt ishlash rejimidagi quvvat sarfi, T - ishlash vaqti, k - yuklanish koeffitsiyenti (2 - yuqori kuchlanishda, 3-past kuchlanishda), P_3' - qisqa tutashuv rejimida quvvat sarfi.

Havo elektr uzatish liniyalaridagi umumiy yillik elektr energiya isroflari quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{\text{хл}} = \frac{P_0^2+Q_0^2}{10^3 \cdot U_0^2} \cdot r_o \cdot L + \Delta P_0 \cdot L \cdot \text{T} \quad (6)$$

bunda L - havo liniyalarining uzunligi, r_o - havo liniyalarining solishtirma aktiv qarshiligi, P_0 va P_0, T - vaqt oralig‘ida oqib o‘tayotgan aktiv va reaktiv quvvat (hisoblashlarda vaqt oralig‘i 0,5 soat deb qabul qilinadi), U_0 - tarmoqning o‘rtacha kuchlanishi, ΔP_0 - izolyatordagi quvvat isrofi.

6/0,4 kV kuchlanishli transformatorlarda elektr energiya isroflari ularning pasport ma’lumotlari (turi, quvvati, salt va qisqa tutashuv isroflari), ishlash vaqti hamda yuklama grafiklaridagi tok qiymatlari (o‘rtacha va maksimal) asosida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta W = \Delta P_0 t + \Delta P_1 \tau^2 \text{к}_2^2 \quad (7)$$

bunda ΔP_0 - izolyatordagi quvvat isrofi, t - transformatorning ishlash vaqti soatlari soni, ΔP1 - nominal yuklama rejimidagi quvvat isrofi, τ - maksimal isroflar vaqti, к_2^2 - yuklama koeffitsiyenti.

Tadqiqot obyektining mavjud texnik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari hamda berilgan boshlang‘ich ma’lumotlari asosida elektr ta’minoti tizimida yuzaga keladigan qo‘shimcha elektr energiyasi isroflarini aniqlash metodikasi ishlab chiqiladi. Bunda

oldingi kichik boblarda keltirilgan hisoblash usullari asosida elektr energiyasi isroflarining tegishli tarkibiy qismlari aniqlanib, ularning qiymatlari o‘zaro taqqoslanadi. Hisoblash natijalarini tadqiqot obyektida qayd etilgan yoki hisobiy yo‘l bilan aniqlangan umumiy elektr energiyasi isroflari bilan solishtirish orqali qo‘shimcha isroflarning miqdoriy qiymati baholanadi. Hisoblash natijalari 2 - jadvalda keltirilgan.

2 - jadval

Tadqiqot obyektining elektr energiya isroflarini aniqlash

№	Yil	Umumiy EE mln. kW·h	Hisobiy EE isroflari mln. kW·h	Qo‘shimcha EE mln. kW·h
1	2022	9,92	2,24	7,98
2	2023	10,45		8,21
3	2024	9,35		7,11

2 - jadvalda keltirilgan natijalar qo‘shimcha isroflarning hisobiy isroflarga nisbatan ko‘p ekanligi, elektr energiya isroflarini aniqlashda tashqi omillarni e’tiborga olib elektr energiya isroflarini modellashtirish lozim ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli qo‘shimcha elektr energiya isroflarini e’tiborga olib elektr energiya isroflarini modellashtirish amalga oshirildi.

Hisobiy yo‘l bilan aniqlanadigan elektr energiya isroflarini kamaytirish yuqori qiymatli nuqtalarda liniya yoki transformatorlarni modernizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Tashqi ta’sirlarni, jumladan harorat, namlik va ortiqcha yuklamani baholash uchun korrelyatsion tahlil qo‘llanilib, bu jarayonda Pearson korrelyatsiyasi ishlatildi. U ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash imkonini berib, tanlangan parametrlar - ortiqcha yuklanish koeffitsiyenti, harorat qiymatlari, havo namligi hamda qorli va yomg‘irli kunlar asosida hisoblandi. Natijalar 3-jadvalda keltirilib, ahamiyatlilik darajasi Fisher kriteriyasi orqali tekshirildi va 1,96 dan yuqori bo‘lgan qiymatlar muhim deb qabul qilindi.

3 - jadval

Elektr energiya isroflariga ta’sir etuvchi faktorlarning korrelyatsion tahlili

№	Ta’sir qiluvchi faktorlar	Qo‘shimcha EE nisbatan korrelatsiya koeffitsiyenti	Z	Ahamiyatlilik indikatori
1	**к**	0,72	2,72	TRUE
2	t_{max}	-0,61	-2,12	TRUE
3	t_{min}	-0,33	-1,02	FALSE
4	t	-0,57	-1,94	FALSE
5	φ	0,51	1,68	FALSE
6	n_1	0,57	1,94	FALSE
7	n_2	0,68	2,48	TRUE

3 - jadvalda korrelyatsion tahlil natijalari asosida ajratib olingan birlamchi ma’lumotlar asosida sun’iy intellektning ko‘p qatlamli neyron tarmoqlar

(Multilayer Perceptron - MLP) usuli yordamida elektr energiya isroflarini aniqlashning modeli ishlab chiqilgan.

4-jadvalda keltirilgan korrelyatsiya tahlili natijalaridan olingan birlamchi ma’lumotlar asosida, Ko‘p qatlamli Perceptron (bundan keyin MLP) sun’iy intellekt usuli yordamida elektr energiyasi isroflarini aniqlash modeli ishlab chiqildi. Sun’iy intellektga asoslangan ko‘p qatlamli dasturlash (MLP) asosidagi quvvat yo‘qotishlarini aniqlash modelining optimal parametrlari keltirilgan. Modelda faollashtirish funksiyasi sifatida ReLU, orqaga qarash qiymati 3, kirish qatlami 9 ta neyron, yashirin qatlamlar mos ravishda 9 va 30 ta neyron, o‘qitish jarayoni esa 103 ta epoch etib belgilangan. Mazkur parametrlar modelning elektr tarmog‘idagi quvvat yo‘qotishlarini aniqlash va bashoratlash jarayonida maqbul natijalarga erishishini ta’minlovchi optimal konfiguratsiyani ifodalaydi.

4-jadval

Sun’iy neyronga asoslangan ko‘p qatlamli dasturlash (MLP) asosidagi quvvat yo‘qotishlarini aniqlash modeli

№	Giperparametrlar	Qiymat
1	Activation (Faollashtirish)	ReLU
2	look_back (orqaga qarash)	3
3	Input layer neurons (Kirish qatlami neyronlari)	9
4	1st layer neurons of hidden layer (Yashirin qatlamning 1-qavat neyronlari)	9
5	2nd layer neurons of hidden layer (Yashirin qatlamning 2-qavat neyronlari)	30
6	Epoch (o‘qitish)	103

Tanlangan neyronlar va epoch qiymatlari bo‘yicha xatolikning juda kichikligi (0,003 va 0,002) elektr isroflarini aniqlashda MLP modelining adekvatligini hamda raqamli egizakda qo‘llanilishini tasdiqlaydi. Ushbu tarmoq asosida 2024 - 2026 - yillar uchun hisoblangan energiya isroflari bashorati 5-jadvalda keltirilgan.

5 - jadval


Elektr energiya isroflari

№	Yil	Umumiy EE isroflari mln.kW·h	Hisobiy EE isroflari mln.kW·h	Qo‘shimcha EE isroflari mln.kW·h	Umumiy EE iste’moliga nisbatan ulushi
1	2024	10,38	2,24	8,14	15,4%
2	2025	10,52		8,28	15,7%
3	2026	11,27		9,03	16,1%

Keyingi uch yilda energiya isroflari 10,38 dan 11,27 mln kW·h gacha, qo‘shimcha yo‘qotishlar esa 8,14 dan 9,03 mln kW·h gacha ortib, umumiy iste’moldagi ulushi 16,1% ga yetgan. Ushbu o‘sish tarmoqdagi texnik muammolar

va past samaradorlikdan dalolat beradi. Mazkur holatni bartaraf etish va monitoringni avtomatlashtirish uchun 6 kV kuchlanishli tarmoqlarda raqamli egizak texnologiyasini joriy etish zarur.


Dissertatsiyaning **“6 kv kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining raqamli egizag texnologiyasi asosida tarkibiy modellarini shakllantirish va ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining texnik holatini monitoring qilish, ish rejimlarini tahlil etish, nosozliklarni bashoratlash va elektr ta’minoti ishonchliligini oshirishga yo‘naltirilgan raqamli egizakning tarkibiy modellari ishlab chiqilgan. Mazkur model doirasida transformator podstansiyalari, 6 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalari, yuklama va elektr energiyasi sifati ko‘rsatkichlari hamda ob-havo ma’lumotlarini yagona axborot muhitida birlashtiruvchi ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan, shuningdek, tarmoq elementlarini klassifikatsiya qilish va texnik holatini baholash tizimi taklif etilgan. Raqamli egizakning real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash imkoniyati tarmoqning joriy holatini kuzatish, yuklamalar dinamikasini tahlil qilish, me’yoriy chetlanishlarni aniqlash hamda ehtimoliy avariya holatlarini virtual muhitda modellashtirish imkonini beradi. Transformator va liniyalarning texnik holati, yuklama darajasi, ekspluatatsion ma’lumotlar va ob-havo omillarining o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish orqali nosozliklar va avariya ehtimolini oldindan baholash hamda profilaktik texnik xizmat ko‘rsatishni rejalashtirish mumkin. Taklif etilgan raqamli egizak modeli SAIDI va SAIFI ko‘rsatkichlarini yaxshilash, elektr ta’minotidagi uzilishlar davomiyligi va chastotasini kamaytirish hamda tarmoqdagi energiya isroflarini minimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yuklamaning o‘zgarishi, tarmoq elementlarining ishdan chiqishi, ob-havo sharoitlari va elektr ta’minoti sxemasining qayta konfiguratsiyasi kabi ssenariylarni modellashtirish orqali optimal ish rejimini tanlash va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Natijada ishlab chiqilgan raqamli egizak 6 kV kuchlanishli qishloq elektr tarmoqlarining ishonchliligi, energiya samaradorligi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga imkon beradi.



4 - rasm. Ma’lumotlar bazasining ishlash mantiqiy blok-sxemasi.

4 - rasmdagi blok sxemaga asosan qora to‘rtburchakda berilgan uskunalar alohida holatda qo‘llaniladi. Ko‘k rang bilan berilgan uskunalar faqatgina qora chegara tarkibiga birika oladi, ya’ni alohida qo‘llash imkoniyati mavjud emas. Yashil rangda belgilangan uskunalar esa barcha boshqa uskunalar bilan birikib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. O‘z navbatida koordinata ma’lumotlari ob-havo ma’lumotlari bilan birikib, har bir qurilma joylashgan o‘rniga nisbatan ob-havo ma’lumotlari taqdim etiladi.

6 kV li elektr tarmoqlarini indikatorlarga klassifikatsiya qilish orqali baholash masalalari yoritilgan. Ushbu usul tizimning ishonchliligi, samaradorligi va iqtisodiy foydaliligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri baholash orqali energiya resurslari tejaladi, qurilmalarning xizmat muddati uzayadi va avariyalar kamayadi. Tizim baholash jarayonida yuklamalar xususiyati, manba ishonchliligi hamda texnik parametrlar inobatga olinadi. Notog‘ri tanlangan sxema ortiqcha energiya isroflariga va texnik muammolarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Qishloq elektr ta’minotida odatda radiyal va magistral sxemalar qo‘llanilib, ular afzalliklari va qo‘llash sharoitlariga ko‘ra farqlanadi. Optimal sxemani tanlash loyihalash, yangilash yoki mavjud sxemani baholash usullari asosida amalga oshiriladi va bu jarayon maxsus algoritm yordamida olib boriladi.



5 - rasm. Elektr ta’minoti tizimini indikatorlarga klassifikatsiya qilish orqali baholash

5 - rasmdagi algoritmga ko‘ra dastlab, fiderlar soni n va transformatorlar soni m ma’lumotlar bazasidan qabul qilinib, barcha hisoblanishi kerak bo‘lgan barcha sxemalar soni quyidagicha hisoblanadi:

